XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-yanvar VII-4-1-10-0-K/25 Toshkent viloyati

Toshkent viloyati hududidagi markaziy issiqlik ta’minoti korxonalarining issiq suv va isitish xizmatlari tariflari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonunining 3-bob 13-moddasiga asosan, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqarish boshqarmasiga 2024-yil 4-oktabrda berilgan H-11-01/12-4788-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 14-maydagi 01/103-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Angren issiqlik energiyasi” davlat unitar korxonasiga 2024-yil 6-avgustda berilgan H-11-01/12-3573-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 16-avgustdagi 01/10-975-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan Chirchiq “Issiqlik energiyasi” ishlab chiqarish korxonasiga 2024-yil 2-oktabrda berilgan H-11-01/12-4754-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01/10-419-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan viloyat “Olmaliq issiqlik manbai” masuliyati cheklangan jamiyatiga 2024-yil 31-iyulda berilgan H-11-01/12-3468-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 3-avgustdagi 01/10-233-sonli xati o‘rganib chiqilib, issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqarish boshqarmasiga 2024-yil 4-oktabrda berilgan H-11-01/12-4788-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 14-maydagi 01/103-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Angren issiqlik energiyasi” davlat unitar korxonasiga 2024-yil 6-avgustda berilgan H-11-01/12-3573-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 16-avgustdagi 01/10-975-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan Chirchiq “Issiqlik energiyasi” ishlab chiqarish korxonasiga 2024-yil 2-oktabrda berilgan H-11-01/12-4754-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01/10-419-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan viloyat “Olmaliq issiqlik manbai” masuliyati cheklangan jamiyatiga 2024-yil 31-iyulda berilgan H-11-01/12-3468-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 3-avgustdagi 01/10-233-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqarish boshqarmasi, “Angren issiqlik energiyasi” davlat unitar korxonasi, Chirchiq “Issiqlik energiyasi” ishlab chiqarish korxonasi, “Olmaliq issiqlik manbai” masuliyati cheklangan jamiyati tomonidan iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlari tariflari taqdim etilgan xulosalar asosida **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

4. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Z.Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G‘.Sheraliyev) iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlarining yangi tariflari 2025-yil 1-fevraldan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borsin.

5. Viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqarish boshqarmasi, “Angren issiqlik energiyasi” davlat unitar korxonasi, Chirchiq “Issiqlik energiyasi” ishlab chiqarish korxonasi, “Olmaliq issiqlik manbai” masuliyati cheklangan jamiyati rahbarlariga iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlarining yangilangan tariflari 2025-yil 1-fevraldan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

6. Viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqarish boshqarmasi, “Angren issiqlik energiyasi” davlat unitar korxonasi, Chirchiq “Issiqlik energiyasi” ishlab chiqarish korxonasi, “Olmaliq issiqlik manbai” masuliyati cheklangan jamiyati rahbarlari belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.G‘aniyev hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



FAYZIYEVA
SAYYORA
MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 6-yanvardagi
VII-4-1-10-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hududidagi markaziy issiqlik ta’minoti korxonalarining issiq suv va isitish xizmatlari TARIFLARI

Toshkent viloyati "Issiqlik manbai" ishlab chiqarish boshqarmasi					
T/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx (ta’rif) (so‘m)**	**Amaldagi narx (ta’rif) (so‘m) (QQS bilan)**	**Taklif etilayotgan narx (ta’rif) (so‘m)**	**Taklif etilayotgan narx (ta’rif) (so‘m) (QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	72 600	81 312	83 450	93 464
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	3 993	4 472,16	4 593.0	5 144,16
1.3.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	15 595	17 466,4	17 925,1	20 076,11
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	110,19	123,41	166,9	186,93
2	**Budjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	125 190	140 212,8	500 000	560 000
3	**Ulgurji iste`molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	125 190	140 212,8	320 000	358 400

"Angren issiqlik energiyasi" davlat unitar korxonasi					
T/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx (ta’rif) (so‘m)**	**Amaldagi narx (ta’rif) (so‘m) (QQS bilan)**	**Taklif etilayotgan narx (ta’rif) (so‘m)**	**Taklif etilayotgan narx (ta’rif) (so‘m) (QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	72 600	81 312	83 490	93 508,80
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	4 719	5 285,28	5 426,85	6 078,07
1.3.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	15 493	17 352,16	17 816,77	19 954,78
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	123,42	138,23	152,29	170,56

2	**Budjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	350 000	392 000	440 500	493 360
3	**Ulgurji iste`molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	350 000	392 000	440 500	493 360
Chirchiq "Issiqlik energiyasi" ishlab chiqarish korxonasi					
t/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx (ta'rif) (so'm)**	**Amaldagi narx (ta'rif) (so'm) (QQS bilan)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm) (QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	78 650	88 088	90 447,5	101 301,2
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	4 326	4 845,12	4 975	5 572
1.3.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	16 037	17 961,4	18 442	20 655,04
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	133	148,96	153	171,36
2	**Budjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	121 800	136 416	508 000	568 960
3	**Ulgurji iste`molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	121 800	136 416	508 000	568 960
"Olmaliq Issiqlik manbai" ma'suliyati cheklangan jamiyati					
t/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx (ta'rif) (so'm)**	**Amaldagi narx (ta'rif) (so'm) (QQS bilan)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm) (QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	82 368	92 252,16	90 000	100 800
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	4 530	5 073,6	4 950	5 544
1.3.	Issiq suv 1 kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	17 133	19 188,96	18 720	20 966,4
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	115,32	129,16	126	141,12
2	**Budjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	237 000	265 440	245 000	274 400

3	**Ulgurji iste`molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	249 500	279 440	250 000	280 000